CHO‘LPON LIRIKASINING ERKINLIK G‘OYASI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jamolov Islom Ilhom o‘g‘li

Osiyo texnologiyalari universiteti magistranti

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20021479

Adabiyot har bir xalqning o‘tmishini, milliyligini, o‘zligini ifodalaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat tinch-totuv yashaydi" Darhaqiqat, xalqning tinch va osuda hayot kechirishi uchun adabiyotning o‘rni beqiyosdir. O‘zbek adabiyoti ming yillik tarixga ega. Yaqin o‘tmishga yuzlanadigan bo‘lsak, XIX asr oxiri XX asrlar davomida Turkiston xalqi tahlikali vaziyatda yashagan bo‘lishiga qaramay adabiyot to‘xtab qolmadi. Jadidchilik harakati deya nom olgan o‘zbek xalqining fidoiy farzandlari milliy adabiyotimiz rivojiga munosib hissalarini qo‘shdilar. Bu borada ayniqsa Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon o'zbek adabiyotida milliy uyg'onish davri vakillari orasida eng yetakchi ijodkorlardan biridir.Cho'lpon o'z asarlarida erkinlik, mustaqillik, millat taqdiri, inson sha’ni va vijdoni haqida so'z yuritadi. U xalqni uyg'otishga, jaholat va qullikdan qutulishga chaqirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Cho‘lpon o‘z she’rlari va asarlari orqali xalqni o‘z qadrqimmatini anglashga, mustamlakachilik zulmiga qarshi turishga, ozodlik uchun kurashga da’vat etgan. Uning “Boshqa yo‘l yo‘q”, “Ko‘rganlar”, “Kecha va kunduz” kabi asarlarida inson erki, milliy g‘urur va ma’naviy uyg‘onish g‘oyasi chuqur ifodalangan. Shoir xalqni jaholat uyqusidan uyg‘otish uchun so‘z qudratidan foydalangan, qalblarga umid, ruh, ishonch singdirgan.

Cho‘lponning “Turkiston” degan so‘zi uning ijodida nafaqat geografik nom, balki erkinlik, ozodlik va birlik timsoli sifatida gavdalanadi. U o‘z asarlarida millatning o‘zligini unutmaslikka, ona tilini ardoqlashga, milliy madaniyatni asrashga chaqirgan. Uning fikricha, haqiqiy uyg‘onish inson qalbidan, tafakkuridan boshlanadi. Shu bilan bir qatorda general-leytenat Bahodir Matlyubovning quyidagi fikrlari ham o‘rinli ekanini guvohi bo‘lamiz: “Chunonchi, Cho'lpon asarlari ham insonni tong yulduzi kabi uyg'onishga da'vat etadi.Shoirning “Butun kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib xalq ichiga boraylik” yoki yillar davomida o'qish man etilgan olovli satrlari ongimizda jonlanadi:

Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir...

Cho'lpon odamlarimizning savodxon, bilimli va ma'rifatli bo'lishini, millat mustaqilligini orzu qilgan va unga intilib yashagan.

Cho‘lponning bugungi kunda ham o‘quvchilar nazaridan qolmay kelayotgan “Xalq” she’rida:

Xalq istagi – ozod bolsin bu o‘lka

Ketsin uning boshidagi ko‘lanka.

misralarida xalqning ozod bo’lishini, uning boshidagi qora kunlarning tezroq o’tishini istagan..

“Xalq istagi - ozod bo‘lsin bu o‘lka”

Bu keltirilgan misrada xalqning erkinlik, mustaqillik va baxtli hayotga bo‘lgan orzusini ifodalaydi.“Xalq istagi” deganda xalqning ichki orzusi, milliy g‘ururi, ozodlikka intilishi tushuniladi.“Ozod bo‘lsin bu o‘lka” deganida esa Vatan qullikdan, zulmdan, adolatsizlikdan

xalos bo‘lishi, mustaqil bo‘lishi tilanadi.Demak, bu jumla xalqni ozodlikka chorlovchi, erkin fikr va erkin hayot uchun kurashishga undovchi kuchdir.

“Ketsin uning boshidagi ko‘lanka”

Bu yerda “ko‘lanka” (soya, qorong‘ulik) ramziy ma’noda ishlatilgan.“Ko‘lanka”—zulm, mustamlaka, jaholat, qo‘rquv yoki adolatsizlikni bildiradi.“Ketsin”—bu illatlar yo‘qolsin, xalq boshidan arisin degan ma’noda.Ya’ni shoir xalq boshidagi zulm soyasi ketib, xalq erkin, baxtli, nurli hayot kechirishini orzu qilgan.Bu ikki satr birgalikda shunday g‘oyani ifodalaydi:“Xalq ozodlikka erishsin, endi zulm va jaholat soyasi yo‘qolsin, bu yurt erkinlik va adolat nuri bilan yoritilsin.”Shoir xalqni uyg‘otishga, o‘z ozodligi uchun kurashishga chaqiradi. Ikkinchi misra istiora san’atini hosil qilyapdi, chunki “Ko’lanka” so’zi bu yerda aynan soya ma’nosida emas, balki yurtning boshiga kelgan qora kunlar, qiyinchiliklar ma’nosida ishlatilib badiiy san’at hosil qilyapdi.

Butun kuchni xalq ichidan olaylik,

Quchoq ochib xalq ichiga boraylik.

Ushbu oxirgi misradan ko’rinadiki, shoir xalqdan kuch olish lozim ekanligini, xalq bilan birlashib harakat qilish kerakligini ta’kidlab o’tgan. Chunonchi, shoirning “Butun kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib xalq ichiga boraylik” degan satrida chuqur ma’no yotadi.Haqiqiy ozodlik, taraqqiyot va kuch — xalqning o‘zida. Agar ziyolilar, rahbarlar yoki ijodkorlar xalqdan uzoqlashsa, xalqning dardini, orzu-intilishlarini bilmasa, yurt hech qachon rivoj topmaydi.Shuning uchun shoir xalq bilan birlashish, xalq orasiga kirish, xalq uchun mehnat qilish zarurligini uqtiradi. Cho‘lponshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev shoir lirikasining umumiy mohiyatini quyidagicha izohlaydi: “Cho‘lpon she’riyati — bu ozodlikka chanqoq qalbning faryodi, millatning uyg‘onishiga qaratilgan ruhiy da’vatdir.”

Chunki xalq — bu jamiyatning poydevori, har qanday o‘zgarishning harakatlantiruvchi kuchidir. Uningcha, xalqni yoritish, uni uyg‘otish, adolat va ozodlikka yetaklash uchun avvalo xalqning ichiga kirish, ular bilan birga yashash, ularning og‘rig‘ini, quvonchini his qilish lozim. Ana shundagina chin ma’nodagi birlik, birdamlik va kuch paydo bo‘ladi. Shoirning yana bir go‘zal ijod namunasiga nazar tashlaymiz ;

“Buzilgan o‘lka”

Ey, tog‘lari ko’klarga salom bergan zo‘r o‘lka,

Nega sening boshing uzra quyuq bulut ko‘lanka?

Bu misralar orqali shoir o‘z uslubida vatanga bo‘lgan faxr, go‘zallik va ulug‘lik tuyg‘ularini aks ettiradi. Bu vatan, bu o‘lka shunchalar zo‘rki, uning tog‘lari hatto ko‘klarga ham salom beradi. Mazkur misramizda tashxis san’atidan juda go‘zal tarzda foydalanadi.Ikkinchi misrada vatanga murojaat qilib nega sening boshingga bunday og‘ir kunlar tushdi deyiladi.

Ko‘m-ko‘k go‘zal o‘tloqlaring bosilg‘on,

Ustlarida na poda bor, na yilqi,

Podachilar qaysi dorg‘a osilg‘on?

Bu misrada yurtning boshiga tushgan shunday bir o‘g‘riqli davrda xalqqa murojaat bilan go‘zal o‘tloqlarning paymon etilganligi, ularning ustilarida chopib yuradigan yilqilar va podalarning yo‘qligi, podachilarning qaysi dorga osilgani, ya’ni qatag‘on qildirilganligi achchiq kinoya va dardli savol tariqasida ifoda etiladi. Yuqoridagi misralardan Cho‘lponning vatanini

qay darajada sevishi, yurtning ozodligi uchun joni achishayotgani, vatanga bo'lgan muhabbatini yaqqol sezish qiyin emas ,albatta.

Ot minganda qushlar kabi uchguchi,

Erkin-erkin havolarni quchguvchi,

Ot chopganda uchar qushni tutguvchi,

Uchar qushday yosh yigitlar qayerda?

Tog' egasi: sor,burgutlar qayerda?

Ushbu qatorlarda shoir o'z xalqining avvalgi kuchli, jasur,g'ururli yigitlarini yod etadi. Ot minganda qushday uchgan, ya'ni tez,kuchli, epchil bo'lgan.Erkin havolarni quchgan,ya'ni ozod,qo'rqmas,jasur bo'lgan yigitlarni so'roqlamoqda. Shoir achinish va iztirob bilan "shunday yigitlar qani? Tog'larning egasi bo'lgan burgutday yigitlar qayerga g'oyib bo'ldi deydi. Bu savollarda dard,sog'inch va ayni damda xalqni uyg'otish istagi mujassamlashgan.

Cho'lpon ijodida xalqni ozodlikka,birdamlikka chorlovchi kopgina she'rlarni ko'rishimiz mumkin. Ana shunday betakror ijod namunalaridan s biri uning "Binafsha" she'ridir.

Binafsha, senmisan, binafsha – senmi,
Ko'chada aqchaga sotilgan.
Binafsha,menmanmi, binafsha menmi,
Sevgiga, qayg'uga tutilgan?
Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding?
Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,
Yerlarga egilding,cho'zilding.

"Binafsha" she'ri shoir ijodining eng nozik, eng dardli namunalaridan biridir.She'rda "binafsha" gul orqali inson erkinligi, ayol qadr-qimmati va hayotdagi go'zalliklarning toptalishi tasvirlanadi. Shoir "binafsha" timsoli orqali beg'ubor, pok, ammo hayot tomonidan ezilgan bir qalbni ko'rsatadi.

Binafsha, senmisan, binafsha — senmi,
Ko'chada aqchaga sotilgan

Mazkur satrlarda Cho'lpon jamiyatda qadrsizlanib, savdoga aylangan go'zallikni ko'rsatadi. "Ko'chada aqchaga sotilgan binafsha" — bu ayolning, insonning, muhabbatning, go'zallikning qadrsizlanish ramzi.Shoir bu joyda nafaqat ayolning, balki erkinlikning sotilishini ham nazarda tutadi.Unga bu holat juda og'riqli: go'zallikning qadri pul bilan o'lchanayotgan jamiyat huddi unga begona.

Binafsha menmanmi, binafsha menmi,
Sevgingga, qayg'ungga tutilgan?

Yuqoridagi misolda shoir o'zini ham shu "binafsha" bilan qiyoslaydi.Ya'ni u ham erkinlikni, muhabbatni, go'zallikni sevgan, lekin qayg'u ichida qolgan inson. "Sevgingga, qayg'ungga tutilgan" — degani, hayotga oshno, lekin iztirobda yashayotgan ruh.Bu satrlar Cho'lponning ichki iztirobini, ijodkor dardini ochib beradi.

Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,

Bir erkin kulmasdan uzilding?

Bunda "ochilmay uzilish" — yashayolmay qolgan orzu, bo'g'ilgan hayot timsoli."Bir erkin kulmasdan" iborasi — ozodlikka intilgan, lekin unga yetolmagan insonni bildiradi.Cho'lpon bu orqali erkinliksiz hayotning go'zallikni so'ndirishini aytadi.Uningcha, inson faqat erkin bo'lsa — kuladi,

gullaydi, ochiladi.

Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,

Yerlarga egilding, cho‘zilding?

Bu satrlar nihoyatda fojiali ohangda yozilgan. “Yerlarga egilding” — ezilgan, kuchsizlangan, toptalgan go‘zallik; “Cho‘zilding” — umid so‘nishi, hayotning so‘lishi. Shoir bu orqali jamiyatda ezilgan insonlar, erkinlikdan mahrum ayollar, so‘nayotgan orzular haqida alam bilan so‘zlaydi.

“Cho‘lpon tom ma’noda milliy shoirdir. U xalqining yutuqlaridan qancha quvonsa, erksizlikdan shunchalik aziyat chekadi.Shoir she’rlaridagi vatanga muhabbat tuyg‘usi ham uning vataniga bo‘lgan kuchli sadoqadi belgisidir. Shuningdek, akademik Ozod Sharafiddinov shoirning tarixiy rolini umumlashtirib shunday deydi: “Cho‘lpon — o‘zbek xalqini o‘zligini tanishga yetaklagan ijodkor. Uning she’riyati xalq ko‘nglini uyg‘otish vazifasini bajargan.” Shoir she'rlarida dard va alamning ufurib turishi ham, avvalo, millat, Vatanga muhabbat tuyg'ulari bilan izohlanadi. Shoir Vatan istiqbolini ko'zlab dard chekadi, qiynaladi va o'zining ana shu yurak tug'yonlarini rang-barang shakllarda ifodalaydi. Zamonda kechayotgan o’zgarishlarga Cho'lponning munosabati uning she'rlari aniq ko’rsatiladi”.

Cho‘lpon o‘z she’rlari orqali xalqni uyg‘onishga, ozodlik va erkinlik uchun kurashishga chorlagan. Uning “Xalq”, “Binafsha”, “Buzilgan o‘lka” kabi asarlarida millat taqdiri, inson erki va Vatanga muhabbat kuchli ifodalangan. Shoir xalqning ichidan kuch olish, birdamlikda yashash va zulm soyasidan qutulishga da’vat etadi. Cho‘lpon uchun haqiqiy erkinlik — inson qalbining uyg‘onishi, xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi demakdir. Shu bois u o‘z ijodi bilan milliy g‘urur, ozodlik va mustaqillik tuyg‘usini xalq qalbiga singdira olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Matlyubov, “Butun kuchni xalq ichidan olaylik” maqola;
2. Q.Yo‘ldoshev, Cho‘lpon poetikasi masalalari, 1998
3. O.Sharafiddinov, Milliy uyg‘onish adabiyoti, 1999
4. Abdulhamid Cho‘lpon, “Binafsha” Toshkent, 2021-yil
5. 5 .K.Ismoilov, “Cho‘lpon she’riyatining mavzu doirasi hamda dramaturgiyasi” maqola
6. Cho‘lpon, “Buloqlar Quchog‘ida” Toshkent -2007